

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYACHILARNING
KASBIY MAHORATI VA TAJRIBALARINI TIZIMLI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

Yo'ldosheva Feruzaxon Shavkatbekovna

Andijon davlat pedagogika instituti Magistratura

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 101-guruh talabasi

E-mail: feruzayoldosheva@gmail.com

Tel: +998 99 531 11 05

ANNOTATSIYA: *Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar, yangi ta'lim dasturlarining joriy etilishi tarbiyachilarning kasbiy mahoratini tizimli ravishda oshirishni strategik vazifa sifatida belgilab bermoqda. Tizimdagi har bir tarbiyachining malakasi, pedagogik kompetensiyasi va metodik tayyorgarligi maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada tarbiyachilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishning zamonaviy metodikasi, pedagogik tajribani boyitish jarayoni, malaka oshirishning yangi yondashuvlari hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi keng yoritilgan.*

KALIT SO'ZLAR: *maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, malaka, metodika, tizimli rivojlanish, kasbiy mahorat, davlat talablari, innovatsion texnologiya.*

ANNOTATION: *In our country, the large-scale reforms being carried out in the preschool education system, the decrees and resolutions adopted by the head of state, and the introduction of new educational programs designate the systematic improvement of educators' professional skills as a strategic priority. The qualification, pedagogical competence, and methodological preparedness of every educator in the system directly influence the comprehensive development of preschool children.*

This article provides an extensive overview of modern methods for developing educators' professional skills, the process of enriching pedagogical experience, new approaches to professional development, and the effectiveness of state-led reforms in this field.

KEY WORDS: *preschool education, educator, qualification, methodology, systematic development, professional skills, state requirements, innovative technology.*

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning poydevori sifatida jamiyat taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Bola shaxsining ilk tasavvurlari, idrok jarayoni, nutqiy va ijtimoiy

ko‘nikmalari aynan shu bosqichda shakllanadi. Shu sababli maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish, ularning pedagogik salohiyatini yangilash, zamonaviy metodika va texnologiyalar asosida ishlashini tashkil etish davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017–2024 yillar davomida qabul qilingan farmon va qarorlar, xususan, “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5198⁶⁷, 2017–2021 yillarga mo‘ljallangan dastur, “Ilk qadam”⁶⁸ davlat o‘quv dasturining tasdiqlanishi, 2030-yilgacha mo‘ljallangan maktabgacha ta‘lim konsepsiyasi⁶⁹ — bularning barchasi tarbiyachining kasbiy mahoratini zamonaviy talablarga moslashtirishni taqozo etmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida maktabgacha ta‘limni qamrovini oshirish, sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlash bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. Bu jarayonda tarbiyachining kasbiy mahorati, uning metodik tayyorgarligi va pedagogik madaniyati hal qiluvchi o‘ringa ega.

Maktabgacha ta‘limda ilgari mavjud bo‘lgan muammolar – metodik materiallarning yetishmasligi, tarbiyachilarning malaka darajasining pastligi, yangicha yondashuvlarning yo‘qligi, texnik vositalarning kamligi – bugungi islohotlar jarayonida faol bartaraf etilmoqda. Ammo tizim samaradorligini oshirish uchun tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini izchil, tizimli, ilmiy asosda rivojlantirish talab etiladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish masalasi bugungi islohotlar jarayonida alohida ahamiyat kasb etib, ta‘lim sifatini ta‘minlashning eng muhim omillaridan biri sifatida talqin etilmoqda. Chunki bolalarning shaxs sifatida shakllanishi, ularning dunyoqarashi, bilish jarayonlari, ijtimoiy-madaniy ko‘nikmalari aynan tarbiyachi mehnati, uning kasbiy tayyorgarligi darajasi va metodik mahorati bilan bevosita bog‘liqdir. Shu boisdan so‘nggi yillarda davlat siyosati maktabgacha ta‘lim tizimiga alohida e‘tibor qaratib, tarbiyachilar faoliyatini takomillashtirish, ularning malakasini oshirish, professionallik darajasini yuksaltirish borasida keng ko‘lamli islohotlarni hayotga tatbiq etmoqda. Mazkur o‘zgarishlar, avvalo, tarbiyachi shaxsini yangicha yondashuv asosida baholash, uning bilim, ko‘nikma va malakasini zamonaviy mezonlar asosida rivojlantirishning tizimli mexanizmini shakllantirishni taqozo etadi.

⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari

⁶⁸ “Ilk qadam” davlat dasturi.

⁶⁹ Maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishning 2030-yilgacha mo‘ljallangan konsepsiyasi

Bugungi kunda tarbiyachidan nafaqat mashg'ulotlarni o'tkazish, balki pedagogik jarayonni mazmunan boyitish, bolalarning individual rivojlanishini chuqur anglash, zamonaviy psixologik yondashuvlarni tatbiq etish, innovatsion texnologiyalarni puxta o'zlashtirish, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, eng muhimi, o'z kasbiy faoliyatini muntazam tahlil qilib borish talab etilmoqda. Tarbiyachining metodik savodxonligi, ta'lim mazmunini to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulotlarni bolaning yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etishi, psixologik muhitni boshqarish qobiliyati uning kasbiy mahoratining asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-son Farmoni, PQ-2707-son qarori, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining amaliyotga tatbiq etilgani, 2030-yilgacha mo'ljallangan maktabgacha ta'lim konsepsiyasining tasdiqlanishi ham aynan shu yo'nalishda tub burilish yasadi. Ushbu hujjatlarda tarbiyachining kasbiy salohiyatini kuchaytirish, ularni muntazam ravishda o'qitish, malaka oshirish jarayonini ilmiy asoslash, raqamli ta'lim muhitini yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Oxirgi yillarda amalga oshirilgan islohotlar tarbiyachining kasbiy mahoratiga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Endilikda tarbiyachi o'z faoliyatini nafaqat metodik ko'rsatmalar asosida olib boradi, balki zamonaviy innovatsion texnologiyalarni: STEAM ta'limi, Montessori tizimi, Reggio-Emilia yondashuvi, sensor rivojlantiruvchi o'yinlarni amaliyotda keng qo'llashi kerak bo'lgan mutaxassisga aylanmoqda. Bu jarayon tarbiyachidan doimiy izlanish, o'z ustida ishlash, yangi bilimlarni amaliy faoliyatiga integratsiya qilishni talab etadi. Ta'lim jarayonining samaradorligi tarbiyachining psixologik tayyorgarligi, bolaning emotsional holatini boshqarish qobiliyati, individual rivojlanish trayektoriyalarini belgilay olish mahorati bilan ham belgilanadi. Shu o'rinda tarbiyachining kommunikativ kompetensiyasi — ya'ni, ota-onalar bilan o'zaro ishonchli hamkorlikni yo'lga qo'yishi, jamoada ishlay olishi va professional muloqot madaniyatiga egaligi ham muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyachilar kasbiy mahoratini tizimli ravishda oshirish mexanizmlari ham bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Dastlab pedagoglarning hozirgi tayyorgarlik darajasi diagnostika qilinib, kompetensiyalar tahlil etiladi, so'ngra individual rivojlanish rejasi ishlab chiqiladi. Mazkur reja asosida tarbiyachilar mahorat darslari, amaliy seminarlar, ochiq mashg'ulotlar orqali o'z bilimlarini amaliyot bilan boyitadi. Tizimga mentorlik mexanizmining joriy etilishi esa tajribali tarbiyachilar tomonidan yosh kadrlar faoliyatini yo'lga qo'yish, amaliy ko'rsatmalar berish, faoliyatni kuzatish va tahlil qilish imkonini yaratdi. Bu esa pedagoglar o'rtasida tajriba almashish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Jarayon yakunida monitoring o'tkazilib, faoliyat samaradorligi baholanadi, olingan natijalar asosida takomillashtirish choralari belgilash amalga oshiriladi. Shunday

qilib, tarbiyachining kasbiy mahoratini izchil rivojlantirish jarayoni uzluksiz sikl sifatida shakllanmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi tarbiyachining faoliyatiga yangi mazmun baxsh etmoqda. Elektron ta'lim resurslari, multimediya vositalari, virtual didaktik o'yinlar, interfaol mashg'ulotlar tarbiyachi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bularning barchasi bolalarning bilish jarayonlarini faollashtirish, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish, mustaqil fikrlash, kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Eng asosiysi, innovatsion yondashuvlar tarbiyachi kasbiy mahoratini zamon talablari darajasiga ko'taradi, uning faoliyatini tizimli, samarali va metodik jihatdan puxta yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachilar malakasini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar dolzarbligi bejiz emas. Chunki tarbiyachi — bu nafaqat mashg'ulot o'tkazuvchi mutaxassis, balki bolalarning shaxs sifatida shakllanishida asosiy psixolog, ijtimoiy yo'naltiruvchi va madaniy muhit yaratuvchi yetakchi shaxsdir. Shu sababdan tarbiyachining malakasi qanchalik yuksak bo'lsa, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya jarayoni ham shunchalik sifatli tashkil etiladi. Oxirgi yillarda davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va dasturlar tarbiyachilarning kasbiy mahoratini muntazam rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, hududiy malaka oshirish markazlari, metodik xizmat bo'limlari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik asosida tashkil etilayotgan seminarlarda tarbiyachilar yangi bilimlarni egallab, o'z kasbiy doiralari kengaytirib bormoqdalar. Bunday imkoniyatlar tarbiyachi faoliyatiga yangicha yondashuvni ta'minlaydi, ularni ijodiy izlanishga undaydi va kasbiy o'sishning uzluksizligini kafolatlaydi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonini tashkil etishda tarbiyachining psixologik kompetensiyasi alohida o'rin egallamoqda. Bola shaxsiyatining nozik, sezgir va o'ziga xos rivojlanish nuqtalari aynan maktabgacha yoshda shakllanishi bois, tarbiyachi bolaning emotsional ehtiyojlarini tushunishi, uni to'g'ri rag'batlantira olishi, konfliktli vaziyatlarda to'g'ri yo'l ko'rsata olishi zarur. Buning uchun tarbiyachi zamonaviy psixologik yondashuvlarga tayanishi, bola xulq-atvori va psixikasining yoshga oid xususiyatlarini chuqur bilishi talab etiladi. Bu esa o'z navbatida tarbiyachining doimiy psixologik tayyorgarligini talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishidagi individual farqlarni anglash, ularning o'ziga xosligini e'tiborga olish, guruh ichidagi ijtimoiy munosabatlarni boshqarish kabi murakkab jarayonlar tarbiyachidan yuqori darajada sezgirlik va professionallikni taqozo etadi.

Kasbiy mahoratning yana bir muhim jihati — bu tarbiyachining o'z faoliyatiga tanqidiy va tahliliy nazar bilan qaray olishi, ya'ni refleksiv yondashuvni o'zlashtirgan bo'lishidir.

Refleksiya tarbiyachiga o'z faoliyatidagi kamchiliklarni ko'rish, o'zining pedagogik uslubini baholash, mashg'ulot sifatini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni izlashga yordam beradi. Bu jarayon orqali tarbiyachi faoliyatini takomillashtirishning uzluksiz mexanizmi shakllanadi. Shunday ekan, refleksiya tarbiyachi uchun faqat tahlil emas, balki professional o'sishning muhim bosqichi sifatida namoyon bo'ladi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish tarbiyachi kasbiy mahoratining zamonaviy ko'rinishlaridan biridir. Hozirgi davrda ta'lim jarayoniga AKT vositalarining keng joriy etilishi tarbiyachi zimmasiga qo'shimcha mas'uliyat yuklamoqda. Multimediali materiallardan, raqamli platformalardan, virtual didaktik o'yinlardan foydalanish tarbiyachidan raqamli savodxonlikni talab qiladi. Bolalar bilan ishlash jarayonida elektron resurslardan samarali foydalanish, ularni o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtirish va ta'lim mazmuniga tabiiy singdirish tarbiyachining pedagogik mahoratini yanada yuksaltiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, innovatsion texnologiyalarni qo'llash tarbiyachining mashg'ulotni qiziqarli va samarali o'tishini ta'minlash bilan birga, bolalarda mustaqil fikrlash, izlanish, tajriba o'tkazish, muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirishda tashkiliy-metodik xizmat ham muhim rol o'ynaydi. Hududiy metodik bo'limlarning faoliyati, ilg'or tajribalarni ommalashtirish, seminarlar, ustoz-shogird tizimining rivojlantirilishi tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini oshirishda katta ko'mak bermoqda. Har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etilayotgan metodik birlashmalar, davra suhbatlari, ochiq mashg'ulotlar, o'zaro kuzatuvlar tarbiyachiga o'z ustida ishlash, tajriba almashish imkonini beradi. Mazkur jarayonlar orqali tarbiyachi nafaqat pedagogik faoliyatini takomillashtiradi, balki keng fikrlash, ijodiy yondashuv, yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish kabi malakalarni ham egallaydi.

Shuningdek, bugungi islohotlar jarayonida tarbiyachining jamoada ishlash ko'nikmasi, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etish mahorati ham kasbiy salohiyatning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Ota-ona bilan doimiy muloqot, o'zaro maslahatlashuv, bolani rivojlantirishda birgalikda strategiya ishlab chiqish, oilaviy tarbiya va maktabgacha ta'lim o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash tarbiyachining kasbiy madaniyatini yanada oshiradi. Bu jarayon tarbiyachi faoliyatiga ishonchni kuchaytiradi, ta'lim-tarbiya sifatining yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Tarbiyachilarning kasbiy mahoratini tizimli rivojlantirish maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlarning malakasini yanada boyitish, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, metodik xizmatni takomillashtirish orqali tarbiyachining kasbiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Kasbiy mahorati yuksak tarbiyachi — bu intellektual, ma’naviy va jismoniy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalashning asosiy omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari.
2. “Ilk qadam” davlat dasturi.
3. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning 2030-yilgacha mo‘ljallangan konsepsiyasi.
4. Pedagogika faniga oid ilmiy manbalar.
5. Xalqaro tajriba bo‘yicha ilmiy maqolalar.